2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

ÖZBEKISTON ÇORVAÇILIGIDA SIGIRLAR MAHSULDORLIGINING DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YEÇIMLARI

UÖK 636.22/.28.034(575.1)

Yuldashev D.K.

Quyonçilik seleksiyasi va genetika markazi bölim mudiri,

Qişloq xöjalik fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Muallif kodlari: SPIN:6068-6002,

Orcid: 0000-0001-9326-3229,

Web of Science: QPB-2365-2026,

Science ID: FTV-0426-0006

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311077

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
390–394

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Yuldashev D.K. Özbekiston çorvaçiligida sigirlar mahsuldorligining dolzarb muammolar va ularning yeçimlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 390–394. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311077

ANNOTATSIYA Uşbu maqolada Özbekiston Respublikasi çorvaçiligining eng muhim tarmoqlari hisoblangan sutçilikning bugungi holati, tizimli muammolari va ularni bartaraf etiş strategiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida respublika çorvaçiligining sönggi 6 yillik rivoji, qoramollar va sigirlar boş soni dinamikasi hamda 1 boş sigirga töğri keladigan sut mahsuldorligining pastligi kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Şuningdek, tarmoqni ekstensiv rivojlanişdan intensiv bosqiçga ötkaziş, seleksiya-naslçilik işlarini takomillaştiriş, ozuqa ratsionini muvozanatlaş va hududlarda sutçilik klasterlarini rivojlantiriş böyiça ilmiy asoslangan yeçimlar hamda amaliy tavsiyalar taklif etildi.

KALIT SÖZLAR çorvaçilik, sigirlar boş soni, sut mahsuldorligi, ozuqa bazasi, seleksiya va naslçilik, sutçilik klasteri, ekstensiv rivojlaniş, intensiv çorvaçilik, oziq-ovqat xavfsizligi, Özbekiston.

АННОТАЦИЯ В данной статье проанализированы современное состояние, системные проблемы и стратегии развития молочного животноводства — одной из важнейших отраслей животноводства Республики Узбекистан. В ходе исследования особое внимание уделено развитию животноводства республики за последние 6 лет, динамике поголовья крупного рогатого скота и коров, а также актуальным вопросам низкой молочной продуктивности в расчете на одну голову. Предложены научно обоснованные решения и практические рекомендации по переходу отрасли от экстенсивного к интенсивному этапу развития, совершенствованию селекционно-племенной работы, сбалансированию кормового рациона и развитию молочных кластеров в регионах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА животноводство, поголовье коров, молочная продуктивность, кормовая база, селекция и племенное дело, молочный кластер, экстенсивное развитие, интенсивное животноводство, продовольственная безопасность, Узбекистан.

ABSTRACT This article analyzes the current state, systemic problems, and development strategies of dairy farming, one of the most critical sectors of animal husbandry in the Republic of Uzbekistan. The study pays specific attention to the development of the country's livestock sector over the past 6 years, the dynamics of cattle and cow herd sizes, and the pressing issues concerning low milk productivity per cow. Furthermore, scientifically grounded solutions and practical recommendations are proposed to transition the sector from extensive to intensive development, improve breeding and selection work, balance feed rations, and develop dairy clusters across the regions.

KEYWORDS animal husbandry, cow population, milk productivity, feed base, breeding and selection, dairy cluster, extensive development, intensive livestock farming, food security, Uzbekistan.

KIRIŞ. Özbekiston agrar sektorida çorvaçilik va parrandaçilik aholini yuqori sifatli va hayotiy zarur ozi-ovqat mahsulotlari (göşt, sut, tuxum) bilan ta'minlaşda strategik ahamiyatga ega [3-5]. Bugungi kunda respublikamizda aholi sonining yillik ösişi göşt va sut mahsulotlariga bölgan talabni muttasil oşirmoqda. Sönggi yillarda uşbu sohalarni modernizatsiya qiliş böyiça davlat darajasida qator qaror va islohotlar amalga oşirilayotgan bölsa-da, bozor iqtisodiyoti, resurslar çeklanganligi va global iqlim özgarişi şaroitida tizimli muammolar hali ham saqlanib qolmoqda [1].

Uşbu tadqiqotning maqsadi sohadagi eng oğriqli nuqtalarni aniqlaş va ularning ilmiy asoslangan yeçimlarini işlab çiqişdan iborat.Taqqiqotda foydalanikgan usullar. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy tahlil, statistik guruhlaş hamda xalqaro ilğor tajribalarni (Isroil, Gollandiya va AQŞ) qiyoslaş (bençmarking) metodlaridan foydalanildi. Özbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Veterinariya va çorvaçilikni rivojlantiriş qömitasining rasmiy hisobotlari va empirik ma'lumotlari asosiy tahliliy baza bölib xizmat qildi [2,4-5].

Olingan natijalar va ular tahlili. Respublikada çorvaçilik va parrandaçilik barqaror ösiş sur'atlariga ega bölsa-da, tarkibiy muammolar mavjud. Quyidagi 1-jadvalda çorva mollari va parrandalar boş sonining sönggi 3 yillik dinamikasi keltirilgan.

1-jadval. Özbekistonning asosiy çorva mollari va parrandalar dinamikasi

Körsatkiçlar (mln boş)	2024-y	2025-y	2026-y (prognoz)
Yirik şoxli qoramollar	14,2	14,5	14,8
Qöy va eçkilar	24,1	24,6	25,2
parrandalar	105,0	112,0	120,0

Taxlillar şunu körsadatiki Har yili qoramollar soni barqaror ravişda 300 ming boşga (taxminan 2% ga) köpayişi kutilmoqda. Qöy va eçkilar esa 025-yilda 500 ming boşga, 2026-yilda esa 600 ming boşga köpayişi prognoz qilinmoqda (ösiş tezlaşmoqda, ~2.4%). Parrandalar (Eng yuqori ösiş) 2 yilda jami 15 mln boşga yoki qariyb 14,3% ga oşmoqda. Çorva va parranda sonining köpayişi içki bozorda göşt, sut va tuxum narxlarining barqarorligini ta'minlaşga va importga qaramlikni kamaytirişga xizmat qiladi. Ammo Pespublikada parranda va çorva sonining bunday sur'atda ösişi ozuqa bazasini (asosiy dağal va şirali ozuqalar, omixta em mahsulotlari) ham mutanosib ravişda kengaytirişni va veterinariya xizmatlarini yaxşilaşni talab etadi.

Ma'lumki sigir suti — inson ratsionidagi eng muhim va ozuqaviy moddalarga boy tabiiy içimliklardan biridir. U inson organizmning ösişi, suyaklar mustahkamligi va umumiy energiya muvozanatini saqlaş uçun öta zarur bölgan makro hamda mikronutrientlarning koni hisoblani sababli kunlik extiyojga ega.Şu sababli sutçilikga e'tibor kata. Özbekiston böyiça umumiy sigirlar soni 2018-yildagi 4 626,0 mln boşdan 2023-yilda 5 046, mln boşga yetgan. Şu davr mobaynida barqaror va tizimli ösiş sur'ati (~9,1% jami ösiş) kuzatilgan. Sigirlar soni har yili örtaça 70–130 m.boş atrofiga ösib brogan (2-jadval).

2-jadval. Viloyatlardagi sigirlar boş soni, ming boş

Viloyatlar	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
Qoraqalpoğiston Respublikasi	316,9	320,9	330,4	340,7	350,2	356,3
Andijon	358,7	360,9	367,3	380,6	389,5	398,8
Buxoro	393,8	398,9	407,5	422,3	434,7	446,4
Jizzax	251,1	251,8	254,2	258,9	265,5	271,4
Qaşqadaryo	528,9	530,3	534,5	547,4	558,4	571,4
Navoiy	209,9	210,9	213,6	215,2	218,4	221,5
Namangan	240,7	241,4	245,2	254,3	260,5	265
Samarqand	685,4	695,1	701,6	723,9	736,7	750,2
Surxondaryo	378,3	378,9	385,4	396,4	400,6	394,6
Sirdaryo	163,3	165,1	165,7	171,5	177	181,3
Toşkent	392,7	400,1	401,3	410,3	418	424,6
Farğona	358,8	359,5	366,7	379,2	387,6	395,2
Xorazm	345,3	348,3	354,6	361	365,1	366,1
Respublikada	4626	4663,5	4729,4	4863,2	4965,7	5046,30

Sut işlab çiqariş körsatkiçlar hajmi va ösiş dinamikasiga köra viloyatlarni 3 ta guruhga ajratiş mumkin:

1-Mutloq yetakçilar- Samarqand va Qaşqadaryo viloyatlari.

2-Barqaror ösuvçi va örta guruh: Buxoro (446,4), Toşkent (424,6), Andijon (398,8) va Farğona (395,2):

3-Past körsatkiçli va öziga xos hududlar-Sirdaryo (181,3) va Navoiy (221,5), Surxondaryo viloyati, Qoraqalpoğiston respublikasi va qolganlaridir.

Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti (JSST) va tibbiy me'yorlarga köra, bir inson uçun yillik me'yoriy sut va sut mahsulotlari iste'moli hajmi 300–320 kg bölişi tavsiya etiladi. Özbekistondagi körsatkiçlar uşbu tibbiy tavsiyalarga töliq mos keladi. Özbekiston Respublikasi Statistika agentligi va xalqaro taşkilotlar (FAO) ma'lumotlariga köra, mamlakatda aholi jon boşiga (1 kişiga) töğri keladigan yillik sut işlab çiqariş va iste'mol miqdori örtaça 250–320 kg (litr) atrofida (3-jadval).

3-jadval. Viloyatlar jani sut işlab çiqariş, kg

Viloyatlar	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
Qoraqalpoğiston Respublikasi	378003	386261	399032	414936	434002	448163
Andijon	929812	953645	977773	997250	1038020	1090139
Buxoro	940661	965562	1001196	1019509	1053302	1088895
Jizzax	593913	609510	617702	643318	673785	694136
Qaşqadaryo	1131215	1149045	1173436	1235797	1277622	1306827
Navoiy	453980	468842	478 959	494389	520618	539301
Namangan	678324	696256	720423	736928	758152	774352
Samarqand	1241843	1273938	1305431	1319141	1378429	1403483
Surxondaryo	844640	867090	881859	907385	936302	951041

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311077

Sirdaryo	341492	350254	356130	372517	382352	394086
Toşkent	896650	917835	915465	953956	968431	1022838
Farğona	1021955	1038424	1047 110	1073851	1104908	1138391
Xorazm	1012292	1035773	1053 667	1071800	1097383	1110873
Respublikada ming tonnada	10466,1	10714,3	10993,0	11242,7	11629,4	11968,7
1 kişiga işlab çigarilgan sut, kg	318	320	321	323	325	327

Çorvaçilikning sutçilik yönalişini intensivligi va mahsuldorlik darajasini baholaş uçun 1 boş sigirdan yiliga örtaça soğib olingan sut miqdori (kg) juda muhimdir. Özbekiston Respublikasi va uning hududlarida 1 boş sigirdan yiliga örtaça soğib olingan sut miqdori (kg) dinamikasini sönggi 6 yilligini örganilganda ayni davrda sutçilik yönalişini ekstensiv rivojlanayorganini va sigirlarning mahsuldorlik darajasi pastligini köriş mumkin (4-jadval).

JADVAL

Özbekiston Respublikasi va uning hududlarida 1 boş sigirdan yiliga örtaça soğib olingan sut miqdori (kg) dinamikasi

1 boş sigirga yiliga sut soğib oliş, kg						
Qoraqalpoğiston Respublikasi	1192,8	1203,7	1207,7	1217,9	1239,3	1257,8
Andijon	2592,2	2642,4	2662,1	2620,2	2665,0	2733,5
Buxoro	2388,7	2420,6	2456,9	2414,2	2423,1	2439,3
Jizzax	2365,2	2420,6	2430,0	2484,8	2537,8	2557,6
Qaşqadaryo	2138,8	2166,8	2195,4	2257,6	2288,0	2287,1
Navoiy	2162,8	2223,1	2242,3	2297,3	2383,8	2434,8
Namangan	2818,1	2884,2	2938,1	2897,9	2910,4	2922,1
Samarqand	1811,9	1832,7	1860,6	1822,3	1871,1	1870,8
Surxondaryo	2232,7	2288,4	2288,2	2289,1	2337,2	2410,1
Sirdaryo	2091,2	2121,5	2149,2	2172,1	2160,2	2173,7
Toşkent	2283,3	2294,0	2281,2	2325,0	2316,8	2408,9
Farğona	2848,3	2888,5	2855,5	2831,9	2850,6	2880,5
Xorazm	2931,6	2973,8	2971,4	2969,0	3005,7	3034,3
Respublikada	2262,5	2297,5	2324,4	2311,8	2342,0	2371,8

Respublika viloyatlarida sigirlarning sut mahsuldorligi böyiça 3 ta asosiy guruhga ajratiş mumkin:

1. Yuqori mahsuldor hududlar (Liderlar)- Xorazm viloyati respublika böyiça mutloq yetakçi. 2023-yilda 1 boş sigirdan 3 034,3 kg sut soğib olingan va bu röyxatda 3 tonnalik marrani zabt etgan yagona hududdir. Şuningdek Vodiydan Namangan (2 922,1 kg) va Farğona (2 880,5 kg) viloyatlaridir. Vodiy viloyatlarida çorva parvarişi va iqlim şaroiti undorlik darajasi yuqori bölişini ta'minlamoqda.

2. Örta maxsuldot sigirlari bor hududlar Andijon (2 733,5 kg), Jizzax (2 557,6 kg), Buxoro (2 439,3 kg) va Navoiy (2 434,8 kg): Bu viloyatlarda barqaror ösiş sur'atlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, Navoiy viloyatida 2018-yilga (2 162,8 kg) nisbatan sezilarli ösiş qayd

etilgan.Şuningdek Toşkent (2 408,9 kg) va Surxondaryo (2 410,1 kg) viloyatlari respublika örtaça körsatkiçidan biroz yuqoriroq natija körsatgan barqaror hududlar.

3. Sigirlari past mahsuldor hududlarga Samarqand viloyati (1 870,8 kg) va Qoraqalpoğiston Respublikasidir (1 257,8 kg. Yuqoridagi tahlillarimizda Samarqand jami sut yetiştirişda yetakçi edi, biroq 1 boş sigirga hisoblanganda undorlik juda past. Bu hududda çorvaçilik sifat (mahsuldorlik) hisobiga emas, balki son (boş sonining köpligi) hisobiga rivojlanayotganini körsatadi. Qoraqalpoğiston Respublikasi respublika böyiça eng past körsatkiç ega. Bu erda sigirlar mahsildorligi vodiy yoki Xorazmga nisbatan 2-2,5 barobar kam. Bunga asosiy sabab — murakkab iqlim şaroiti, şörlaniş va sersuv yaşil ozuqa bazasining yetişmovçiligidir.

Respublikamiz böyiça örtaça 1 boş sigirdan yiliga örtaça soğib oliş körsatkiç 2018-yildagi 2 262,5 kg-dan 2023-yilda 2 371,8 kg-g**a** yetgan va öşiş +4,8% taşkill etgan. Ösiş barqaror bölsa-da, sur'at past. Rivojlangan davlatlarda (masalan, Yevropa yoki Isroilda) 1 boş sigirdan yiliga 8 000 – 12 000 kg-gaça sut olinişini hisobga olsak, mamlakat çorvaçiligida hali işga solinmagan salohiyat juda katta.

Uşbu tahlil Özbekiston çorvaçiligining sutçiligida naslçilik körsatkiçlarining pastligi, antirişlar va sun'iy uruğlantiriş, sigirlarni notöğri oziql tizimidagi oqsoqliklar bevosita göşt va sut işlab çiqariş samaradorligini tuşirib yuborayotgan eng asosiy sababliklari ekanligini rörsatmoqda.

Uşbu yönalişdagi dolzarb muammolar va ularning sabablarini tasirlarini kamaytiriş, sigirlar mahsulligini oşiriş böyiça quyidagi hulosa va amaliy tavsiyalar beriladi:

1. Respublika miqyosida çorvaçilik tarmoği yildan-yilga ösib bormoqda, bu aholi sonining ösişi bilan mutanosib ravişda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaşga xizmat qiladi.
2. Ammo respublikada 1 boş sigirdan yiliga örtaça soğib olingan sut miqdori hanuzgaça past bölib qolmoqda.
3. Sigirlar mahsuldorligini oşiris uçun:

a) Seleksiya yönalişida sigilar genezis va zotni yangilaş işlarini kuçaytiriş;
b) Sigirlar ratsioni strategiyasini işkab çiqiş va amalga oşiriş. Bu strategiyada sigirlarning mahsuldorligiga köra ular ratsionini muvozanatlaşni asosiy maqsad etib belgilaş.
c) Sut yetiştirişning 90% qismi xonadonlarda (dehqon xöjaliklarida) tarqoq holda bölgani uçun parvarişlaş tizimi eskirganligi sababli hudidlarda sutçilik klastor tizimini rivojlantiriş.
d) Fermalarda zamonaviy ventilyatsiya va salqinlaştiriş tizimlarini joriy etiş, şuningdek, gidroponika usulida yil böyi yaşil ozuqa yetiştirişni yölga qöyiş lozim.

ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev, Ş. M.ning 2022-yildagi "Çorvaçilikni rivojlantiriş va ozuqa bazasini mustahkamlaş çora-tadbirlari töğrisida'gi" PQ-121-sonli Qarori. Qaror № PQ-121). LexUz Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Özbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy hisobotlari (2018-2024-yy.).
3. Smith, J., & Ivanov, A. Intensive Livestock Farming and Feed Efficiency in Central Asia. Journal of Agricultural Economics, (2023 45(2), 112-125.
4. FAO. (2022). Sustainable livestock transformation in the face of climate çange. Rome.
5. Food and Agriculture Organization [FAO]. (2024). The State of Food and Agriculture 2024: Moving forward on food loss and waste reduction. FAO. fao.org

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311077